



Qatag'on qurbonlarining hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan ilmiy maqolalar, yozma mulohazalar tanlovining NIZOMI

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur nizom oliy ta'lim tashkilotlarining bakalavriat ta'lim yo'nalishida tahsil oluvchi talaba-yoshlar o'rtasida **“Qatag'on qurbonlarining hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan ilmiy maqolalar, yozma mulohazalar”** tanlovini (keyingi o'rinlarda Tanlov deb yuritiladi) o'tkazish tartibini belgilaydi.

2. Tanlovda talaba-yoshlarning keng qamrovli ishtiroki oliy ta'lim tashkilotlarining Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektorlari hamda filiallar direktor o'rinbosarlari tomonidan ta'minlanadi va muvofiqlashtiriladi.

II. Tanlovning maqsadi va vazifalari

3. Tanlovning asosiy maqsadi – jadidchilik harakati va qatag'on qurbonlari hayoti hamda faoliyatini chuqur o'rganish, qatag'on qurbonlarining mamlakat taraqqiyoti, ilm-fan, ta'lim va madaniyat rivojiga qo'shgan hissasini keng targ'ib etish, talaba-yoshlarning ilmiy-tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish, ularda ma'naviy meros va vatanparvarlik tuyg'ularini mustahkamlash, qo'llab-quvvatlash va ilmiy salohiyatini rag'batlantirishdan iborat.

4. Tanlovning vazifasi – jadidlar va qatag'on qurbonlarining hayoti, faoliyati hamda ilmiy-ma'rifiy merosiga oid ilmiy maqolalar va yozma mulohazalarni tayyorlashni rag'batlantirish, talaba-yoshlarda tarixiy manbalar bilan ishlash, ilmiy tahlil qilish va xulosalar chiqarish malakasini shakllantirish, jadidlarning ma'rifatparvarlik g'oyalari, milliy uyg'onish va taraqqiyot yo'lidagi xizmatlarini keng ommaga yetkazish.

III. Tanlovni tashkil etish tartibi va shartlari

5. Tanlovda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida joylashgan oliy ta'lim tashkilotlarining bakalavriat ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talaba-yoshlari ishtirok etadi.

6. Oliy ta'lim tashkilotlarida Tanlovni o'tkazish bo'yicha ishchi guruhlari tuziladi. Ishchi guruhlariga oliy ta'lim tashkilotlarining rektorlari rahbarlik qiladi va yuqori saviyada tashkil etilishiga shaxsan mas'ul hisoblanadi.

7. Tanlov **3 bosqich**da o'tkaziladi:

Birinchi bosqich – guruhlararo bosqichi.

Ikkinchi bosqich – fakultetlararo bosqichi.

Uchinchi bosqich – oliy ta'lim tashkiloti bosqichi.

8. Tanlovning birinchi oliy ta'lim tashkilotida guruhlararo hamda fakultetlararo bosqichi 2026-yil 15-25-sentabr kunigacha, 3-yakuniy oliy ta'lim tashkiloti bosqichi 2026-yilning 5-oktabr kuniga qadar o'tkaziladi.

9. Tanlov o'tkazilishi yuzasidan joriy yilning sentyabr oyidan boshlab oliy ta'lim tashkilotining rasmiy kanallarida e'lon beriladi va ishchi guruhlar tomonidan tanlovda qatnashmoqchi bo'lgan nomzodlar ro'yxati shakllantiriladi.

10. Tanlovda ilmiy maqolalar va yozma mulohazalar ta'lim tashkiloti tomonidan shakllantirilgan Hakamlar hay'ati tomonidan tekshiriladi va g'oliblar aniqlanadi.

11. Hay'at tarkibiga soha bo'yicha yetuk mutaxassislar jalb etiladi.

IV. Tanlov shartlari va baholash mezonlari

12. Ilmiy ishlarga qo'yiladigan talablar

Ilmiy maqola hajmi: 5–10 bet;

Times New Roman, 14 shrift;

1,5 interval;

barcha havolalar manbalar bilan rasmiylashtirilgan bo'lishi;

plagiat darajasi 20 foizdan oshmasligi;

avval nashr etilmagan bo'lishi lozim.

Yozma mulohaza (esse)

2–4 bet;

muallifning mustaqil fikri asosida yozilishi;

mavzudan chetga chiqmasligi;

adabiy til me'yorlariga rioya qilinishi.

13. Tanlovga taqdim etiladigan maqolalar quyidagi mezonlarda baholanadi:

Mavzuning mazmun-mohiyati to'laqonli ochib berilganligi – 20 ball;

Mavzuga oid dolzarb masalalar, ularning yechimlari to'g'risida takliflar keltirilganligi – 20 ball;

Mavzuni yoritishda adabiyotlardan foydalanganlik darajasi – 20 ball;

Tahliliy yondashuvlar, mustaqil fikrlarning aniq bildirilganligi – 20 ball;

Ijodiy ishlarning stilistik va grammatik jihatdan to'g'ri yozilganligi – 20 ball.

14. Insholar Hakamlar hay'ati tomonidan tekshiriladi va 100 ballgacha baholanadi

V. Hujjatlarni taqdim etish tartibi

15. Tanlovga taqdim etiladigan maqolalar (o'zbek, rus yoki ingliz tillarida) kompyuter Word dasturida, Times New Roman shriftida yozilgan bo'lishi hamda matnlar ilmiy, texnik, stilistik tahrir qilingan bo'lishi shart. Materiallarning 1-nusxasida talabalarning o'qish joyi, fakulteti, kursi va ta'lim yo'nalishi to'liq ko'rsatiladi, 2-nusxasida o'qish joyi, fakulteti, kursi va ta'lim yo'nalishi ko'rsatilmaydi.

16. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan ijodiy ishlar qabul qilinmaydi.

17. Oliy ta'lim tashkilotlarida tanlov o'tkazilganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni (OTT Tashkiliy ishchi guruhining bayonnomasi va fotosuratlar) Word va tasdiqlangan PDF ko'rinishida joriy yilning 10-oktabr kuniga qadar elektron shaklda Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markaziga taqdim etiladi.

VI. Tanlov g'oliblarini taqdirlash

18. Tanlovning barcha ishtirokchilari fakultetlar tomonidan sertifikat va qimmatbaho sovg'alari bilan taqdirlanishi mumkin.

19. Tanlovning 1-, 2-, 3-o'rin g'oliblari oliy ta'lim tashkilotining budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan quyidagi tartibda:

1 - o'rin – I darajali diplom, jamoaning har bir a'zosiga bazaviy stipendiya miqdorining to'rt barobari miqdorida pul mukofoti va esdalik sovg'alari;

2 - o'rin – II darajali diplom, jamoaning har bir a'zosiga bazaviy stipendiya miqdorining uch barobari miqdorida pul mukofoti va esdalik sovg'alari;

3 - o'rin – III darajali diplom, jamoaning har bir a'zosiga bazaviy stipendiya miqdorining ikki barobari miqdorida pul mukofoti va esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadi.

Shuningdek, tanlovda faol ishtirok etgan talabalar oliy ta'lim tashkilotining esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadi.

VII. Yakuniy qoidalar

20. Tanlovga taqdim etilgan materiallar to'g'risidagi ma'lumotlarning haqqoniyligiga ishtirokchi javobgar hisoblanadi.

21. Hakamlar hay'ati tomonidan belgilangan o'rin yuzasidan izoh beriladi. Qabul qilingan qarorni muhokama etishga yo'l qo'yilmaydi.

22. Tanlov natijalari e'lon qilingan kundan boshlab ishtirokchilar hakamlar hay'ati tomonidan belgilangan o'rin va baholash natijalaridan norozi bo'lgan taqdirda, 1 (bir) ish kuni mobaynida yozma ravishda apellyatsiya shikoyati bilan murojaat qilish huquqiga ega. Apellyatsiya shikoyati belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

23. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilikka muvofiq belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

24. Tanlov jarayoni va natijalari ijtimoiy tarmoqlarda va oliy ta'lim tashkilotlarining rasmiy veb-saytlarida e'lon qilib boriladi.